



## ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>

### TASKS FOR ENHANCING THE SCIENTIFIC AND INTELLECTUAL EFFECTIVENESS OF MASS CULTURAL EVENTS AT A NEW STAGE OF SOCIETAL DEVELOPMENT

*Mavludakhon Najmetdinova*

*Fergana State University*

*Associate Professor of the Department of Music Education and Culture*

*Fergana, Uzbekistan*

#### ABOUT ARTICLE

**Key words:** mass cultural events; scientific and intellectual influence; social development; cultural strategy; intellectual propaganda.

**Received:** 04.04.26

**Accepted:** 05.04.26

**Published:** 06.04.26

**Abstract:** This article analyzes the main tasks for enhancing the scientific and intellectual impact of mass cultural events at a new stage of societal development. These events play an important role in the process of cultural, social, and spiritual renewal of society. The article examines the characteristics of holidays and events, intellectual propaganda, mass media, and mechanisms for the effective organization of events. In addition, it outlines contemporary conditions, challenges, and ways to address them in order to achieve the stated objectives. The aim of the article is to develop recommendations that have both scientific significance and practical value.

### JAMIYATNING YANGI RIVOJLANISH BOSQICHIDA OMMAVIY-MADANIY TADBIRLARNING ILMIY-INTELEKTUAL TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISH VAZIFALARI

*Mavludaxon Najmetdinova*

*Fargona davlat universiteti*

*Musiqiy ta'lim va madaniyat kafedrasida dotsenti*

*Farg'ona, O'zbekiston*

#### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** ommaviy-madaniy tadbirlar; ilmiy-intellektual ta'sirchanlik; jamiyat rivojlanishi; madaniyat strategiyasi; intellektual targ'ibot.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida ommaviy-madaniy tadbirlarning ilmiy-intellektual ta'sirchanligini oshirishga oid

asosiy vazifalar tahlil qilinadi. Bu tadbirlar jamiyatda madaniy, ijtimoiy va ma'naviy jihatdan yangilanish jarayonida muhim o'rin tutadi. Maqolada bayram va tadbirlar xususiyatlari, intellektual targ'ibot, ommaviy madaniyat vositalari va tadbirlarni samarali tashkil etish mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, bu vazifalarni amalga oshirish uchun zamonaviy shart-sharoitlar, muammolar va ularni hal qilish yo'llari taklif qilinadi. Maqola ilmiy ahamiyatga va amaliyotga ega bo'lgan tavsiyalarni ishlab chiqishni maqsad qiladi.

---

## ЗАДАЧИ ПОВЫШЕНИЯ НАУЧНО-ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ МАССОВО-КУЛЬТУРНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ НА НОВОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА

*Мавлудахон Наджметдинова*

*Ферганский государственный университет*

*Доцент кафедры музыкального образования и культуры*

*Фергана, Узбекистан*

---

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** массово-культурные мероприятия; интеллектуальное воздействие; общественная; культурная стратегия; интеллектуальная пропаганда.

**Аннотация:** В данной статье анализируются основные задачи по повышению научно-интеллектуального воздействия массово-культурных мероприятий на новом этапе развития общества. Эти мероприятия занимают важное место в процессе культурного, социального и духовного обновления общества. В статье рассматриваются особенности праздников и мероприятий, интеллектуальная пропаганда, средства массовой культуры и механизмы эффективной организации мероприятий. Наряду с этим предлагаются современные условия, проблемы и пути их решения для реализации указанных задач. Цель статьи — выработать рекомендации, имеющие научное значение и практическую ценность.

---

**Kirish.** Jamiyat turli bosqichlarda shakllanib borishi natijasida ushbu bosqichlar uchun xarakterli yangilanish, transformatsiya jarayonlari ta'sirchan bo'lib chiqadi. Hozirgi kunda jahon

miqyosida va milliy darajada jamiyat yuqori tezlikda rivojlanmoqda, globallashuv, raqamlashtirish, madaniy xilma-xillik, intellektual kapitalning ahamiyati oshmoqda. Ana shu sharoitlarda ommaviy-madaniy tadbirlar (konsertlar, festivallar, yarmarkalar, madaniy forumlar va hokazo) faqat dam olish vositasi emas, balki jamiyatda ma'naviy va intellektual bosimlarni shakllantiruvchi omilga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida ommaviy-madaniy tadbirlarning ilmiy-intellektual ta'sirchanligini oshirish masalasi juda dolzarb: bu – tadbirlarni tashkil etishda, ularni mazmunan boy qilishda, ishtirokchilarni intellektual faollikka jalb qilishda muhim vazifalarni amalga oshirish kerak. Inson ijodiy tafakkur orqali yangi g'oyalarni yaratadi, muammolar qo'yadi va ularga o'ziga xos yechimlar topadi. Intellektual mulkni huquqiy himoya qilish hamda innovatsion faoliyatni rivojlantirish mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshiradi. Intellektual madaniyat tarixida asosiy yo'nalishlardan biri intellektual an'analarni tadqiq etishdir. Bunda g'oyalar va nazariyalar bilan bir qatorda ularni yaratuvchi ziyolilar hamda ularning jamoalari ham tahlil qilinadi.

Zamonaviy gnoseologik yondashuvlar natijasida ijtimoiy-madaniy tarixning mikro va makrotahlil asosidagi konsepsiyasi shakllandi. Har bir davrning intellektual madaniyati ko'p qatlamli bo'lib, unda elita madaniyati, asosiy tushunchalar, aqliy vositalar va dunyoni anglash usullari mujassamdir. Intellektual madaniyat makon va zamon bilan bog'liq holda rivojlanadi. Unda insonning hayot sharoitlari, ijtimoiy munosabatlari, kognitiv ustuvorliklari hamda madaniyatlararo ta'sirlar muhim rol o'ynaydi. Intellektual makon esa matnlararo jarayonda, muallif va keyingi avlod o'quvchilari o'rtasidagi doimiy aloqalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Darhaqiqat, har bir davrda ma'lum bir "fikrlash uslubi", odatiy fikrlash algoritmi va ma'lum bir g'oyalar to'plami rivojlanadi, bu nafaqat ziyolilarning ta'limotlarida yoki asl mulohazlarida mavjud, balki ko'pchilikning aqliy inventarining bir qismiga aylanadi va odamlar va butun bir avlod yoki bir qancha avlodlarning intellektual hayotida hukmronlik qiladi.[1]

Ma'naviy xavfsizlik milliy xavfsizlikning bir bo'lagini tashkil etadi va jamiyatda inson, ayniqsa, yoshlar g'oyaviy olamida muhim rol o'ynaydigan jarayondir. Xavfsizlik va barqarorlikka nisbatan bo'ladigan tahdidlar, ijtimoiy hayotda uchraydigan muammolarga qarshi kurashda har tomonlama hamkorlik g'oyasi MT Ustavida ta'kidlanganidek, "Birlashgan Millatlar Tashkiloti iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va gumanitar xususiyatga ega xalqaro muammolarni hal etishda

hamda inson huquqlari va erkinliklariga hurmatni rag'batlantirish va rivojlantirish

borasida hamkorlikni amalga oshirish maqsadini ko'zlaydi. Bunday hamkorlik xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlashdagina barcha davlatlarning majburiyati

hisoblanadi". [2]

Maqolaning maqsadi – mazkur vazifalarni aniqlash, ularning mazmunini tahlil qilish va ilmiy-amaliy tavsiyalarini ishlab chiqish. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Ommaviy-madaniy tadbirlar bilan intellektual ta'sirchanlik tushunchasi va uning tarkibiy elementlarini muhokama qilish.
2. Jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida ommaviy-madaniy tadbirlarning roli va imkoniyatlarini tahlil qilish.
3. Ilmiy-intellektual ta'sirchanlikni oshirishga yo'naltirilgan vazifalarni aniqlash.
4. Tadbirlarning mazmuni, formati va tarmog'i ichki intellektual ta'sirchanlikka mos ravishda shakllanishi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

**Adabiyotlar tahlili.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi mamlakatimiz ijtimoiy rivojlanishida muhim qadam bo'ldi.[3] Tadqiqotchilar fikricha, Sharq va G'arb falsafiy tafakkuri tarixida dunyoqarash insonning borliqni anglash jarayonining muhim nazariy asoslaridan biri sifatida talqin etiladi. Sharq mutafakkirlaridan Abu Hamid G'azzoliy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino hamda qadimgi Xitoy faylasufi Konfutsiy o'z asarlarida insonning ma'naviy kamoloti, axloqiy qadriyatlari va bilish jarayonida dunyoqarashning o'rni muhim ekanini ta'kidlaganlar.[4]

Xususan, Abu Nasr Forobiy o'zining falsafiy qarashlarida insonning aqliy kamoloti va ilmiy bilish jarayonini jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, insonning mukammal jamiyat qurishdagi faoliyati to'g'ri shakllangan dunyoqarashga asoslanadi. [5] Abu Ali ibn Sino esa borliq, bilish nazariyasi va inson tafakkuri haqidagi qarashlari orqali ilmiy tafakkurning dunyoqarash shakllanishidagi rolini asoslab beradi. Unga ko'ra, inson ongining rivojlanishi tajriba, aql va ilmiy bilish jarayoni bilan chambarchas bog'liq.

Abu Hamid G'azzoliy esa dunyoqarashni nafaqat aqliy bilish, balki insonning ma'naviy-axloqiy poklanishi bilan ham bog'laydi. Uning qarashlarida insonning haqiqiy bilimga erishishi ruhiy kamolot va e'tiqod bilan uyg'un holda amalga oshadi. Shuningdek, Konfutsiy ta'limotida insonning axloqiy barkamolligi, jamiyatdagi o'rni va ijtimoiy burchi dunyoqarashning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi.[7]

G'arbning antik davr faylasuflari — Suqrot, Arastu, Demokrit, Lukretsiy Kar hamda Kvint Tertullian qarashlarida ham dunyoqarash masalasi muhim falsafiy muammo sifatida yoritilgan. Masalan, Suqrot "o'z-o'zini bilish" g'oyasini ilgari surib, insonning ma'naviy kamoloti va dunyoni anglash jarayonini o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqadi. Arastu esa tabiat, jamiyat va inson

haqidagi ilmiy tahlillari orqali dunyoqarashning nazariy asoslarini ishlab chiqishga katta hissa qo'shgan.[8]

Shunday qilib, Sharq va G'arb mutafakkirlarining ilmiy-falsafiy qarashlari shuni ko'rsatadiki, dunyoqarash insonning borliqni anglash, jamiyatdagi o'rnini belgilash hamda ma'naviy kamolotga erishish jarayonida muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Dunyoqarashning shakllanishi ilmiy bilim, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy tajriba uyg'unligida yuzaga keladi hamda insoniyat tafakkuri taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini ommaviy-madaniy tadbirlar asosida yuksaltirishning ayrim ijtimoiy jihatlari milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ommaviy-madaniy tadbirlarga qiziqishini rivojlantirishning ijtimoiy aloqadorligiga oid S.Samadova, A.Nosirova, F.E.Axmedov, U.Qoraboev, Sh.Sharipov, R.A.Qo'ldoshev, B.Bo'ronov, F.Asqar kabi olimlar tomonidan ilmiy-amaliy talqin etilgan. [9]

Qayd etilgan yuqoridagi tadqiqot ishlarida yoshlar dunyoqarashini tafakkurini rivojlantirishning ba'zi masalalari yoritilgan bo'lib, Yangi O'zbekiston yoshlarining ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirishda ommaviy-madaniy tadbirlarning ahamiyati alohida tadqiqot mavzusi sifatida o'rganilmaganligi uchun ham mazkur ish nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Ommaviy-madaniy tadbirlar ko'plab tadqiqotlarda madaniyat, ijtimoiy integratsiya, jamiyatshilik vositasi sifatida qaralgan. Biroq, ularning ilmiy-intellektual ta'sirchanlik jihatidan, ishtirokchilarning bilim, tushuncha, fikrlash salohiyati, kreativlik hosil qilish nuqtayi nazari bilan — tahlili va uni oshirish mexanizmlari sal kam yetarli o'rganilmagan. Ma'naviy xavfsizlik – jamiyatda axloqiy yuksalish, barqaror muhit, tinch-totuvlik, fuqarolarning manfaatlari va farovonligini ta'minlashda muhim omildir. U islohotlar samaradorligi, shaxs dunyoqarashi va bunyodkorlik tafakkurining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda yoshlar ma'naviy xavfsizligiga quyidagi tahdidlar mavjud:

- dastur va loyihalarning to'liq bajarilmasligi oqibatida huquqbuzarlik, jinoyat va illatlarning ko'payishi;

- globallashuv va texnologiyalashuv natijasida internetga qaramlik, ijtimoiy hayotdan begonalashuv;

- ishsizlik, past ish haqi va narx-navoning qimmatlashuvi sababli ijtimoiy nizolar;

- dabdabali marosimlar, ortiqcha chiqim va salbiy odatlarning yoshlar turmush tarziga ta'siri.

Jamiyat va uning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy tizimlarining hech qanday ijtimoiy larzalarsiz, bir tekisda takomilga yetib borishi uning kelajakdagi barqaror taraqqiyotini ta'minlaydi

va bunyodkorlik an'analarini namoyon etadi. Shu bilan birga, jamiyatning yangilanish bosqichlarida — innovatsiyalar, raqamlashtirish, madaniy globallashuv, sanksiyalar, ekologik va ijtimoiy muammolarni hal qilish kutilganida — ommaviy-madaniy tadbirlar faol madaniy muhitni yaratadi, jamiyatda intellektual tarmoq, fikr almashuvi, ijtimoiy sog'lomlashuv, madaniy kapital tashkil etadi.[10]

O'quv metodologiyasi (tadqiqot usullari)

Tadqiqotdan kelib chiqib quyidagilar amalga oshirildi:

- O'quv–metodik adabiyotlarni tahlil qilish;
- Ommaviy-madaniy tadbirlar misolida intellektual ta'sirchanlikni aniqlash va tasniflash;
- Farqli tadbir formatlari (festivallar, forumlar, madaniy loyihalar) bo'yicha keys-o'rganish (case study) usuli — ularning mazmuni, tashkil etilishi va ishtirokchilardagi intellektual faollikka ta'siri tahlil qilindi;
- Qurilma (konstruktiv) tahlil va normativ tizim usuli — vazifalarni va ularni amalga oshirish yo'llarini aniqlash;
- “Intellektual ta'sirchanlik” tushunchasi ommaviy madaniy tadbirlarda ishtirokchilarda bilim olish, fikrlash, ijodiy yondashuvlar, muomala (kommunikatsiya) jarayonlarini qo'zg'atish, madaniyatlararo almashuvni tashkil etish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Bunday ta'sirchanlikning tarkibiy elementlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: Ma'lum ma'no – tadbir mazmuni ishtirokchilar uchun yangilikka ega bo'lishi, interaktivlik – ishtirokchilar faol ishtirok etishi, fikr almashishi, diskussiyalar olib borilishi, intellektual muhokama – ekspertlar, olimlar, madaniy faollar ishtirokida seminarlar o'tkazilishi, transformatsiyali ta'sir – tadbir natijasida qatnashuvchilarning tasavvurlari, qarashlari, bilimlari o'zgarishi, yangilanishi v.h.

Yangi rivojlanish bosqichida ommaviy-madaniy tadbirlarning imkoniyatlari haqida quyidagilarni misol keltirish mumkin. Jamiyat yangilanish bosqichida quyidagi sharoitlarga ega: innovatsion madaniyat ehtiyoji, raqamlashtirilgan kommunikatsiyalar, global madaniy almashuv, aholida ijodiy potensialni ishga solish zarurati. Shu sharoitda ommaviy-madaniy tadbirlar:

- Intellektual salohiyatni oshirish maydoni sifatida xizmat qiladi.
- Jamiyatda madaniy va intellektual kapital to'plash uchun imkoniyat yaratadi.
- Turli jamoalar, yoshlar, madaniy faollar, olimlar o'rtasida raqamli tarmoqlar va fikr almashuvini qo'llab-quvvatlaydi.
- Tamoyilning (“bilganni bilish”, “fikrlash”, “ishtirok etish”) targ'ibotida muhim rol o'ynaydi.

Tadbirlarning intellektual ta'sirchanligini oshirish uchun quyidagi vazifalar aniqlandi: Tadbir mazmunini intellektual kontent bilan boyitish — seminar-ma'ruzalar, ekspert sessiyalari, panellar, diskussiyalar, master-klasslar joriy etish, ishtirokchilarni faol qilish mexanizmlarini joriy etish — interaktiv formatlar, geymifikatsiya, yashirin savol-javoblar, ijodiy laboratoriyalar, ijtimoiy va intellektual tarmoqlarni faollashtirish — tadbir oldidan va keyin ishtirokchilar orasida tarmoqli aloqa tashkil etish, so'rovlar, fikr almashuv maydonlari, raqamli texnologiyalar, media resurslardan foydalanish — onlayn platforma, virtual sessiyalar, multimedia, bloglar, ijtimoiy tarmoqlar, omma uchun ochiq va yoshlar uchun jozibador formatlarni ishlab chiqish — madaniy formatni intellektual format bilan uyg'unlashtirish, tadbir natijalarini monitoring qilish va baholash — qatnashuvchilarning fikrlari, bilimlari o'zgarishi, natijalarni o'lchash, madaniyat va ta'lim muassasalari, olimlar bilan hamkorlikni kengaytirish — tadbirlarni ilmiy asosda tashkil etish, ilmiy metodologiya joriy qilish.

### **Muhokama va tavsiyalar**

Yuqorida keltirilgan vazifalarni samarali amalga oshirish uchun quyidagicha rejalar tavsiya etiladi:

- Tadbir rejasini ishlab chiqishda ilmiy va madaniy ekspertizani jalb qilish;
- Turli bosqichlarda (yoshlar, talabalar, ijodiy jamoalar) maxsus formatli sessiyalar tashkil qilish;
- Tadbirdan oldin ishtirokchilarga bilim olish uchun yoki intellektual qiziqishni uyg'otish uchun materiallar tarqatish;
- Har bir tadbirda interaktiv struktura (vorkshoplar, diskussiyalar, fikr-shtorming) joriy qilish;
- Onlayn va oflayn formatlarni birlashtirish, masofaviy ishtirok imkoniyatlarini yaratish;

**Xulosa.** Jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida ommaviy-madaniy tadbirlar nafaqat madaniy yoki ma'rifiy faollik bo'lib qolmay, balki jamiyatda yoshlarning intellektual rivojlanish jarayonini faollashtiruvchi muhim omilga aylanmoqda. Maqolada ilmiy-intellektual ta'sirchanlik tushunchasi, ommaviy-madaniy tadbirlarning bu bosqichdagi imkoniyatlari va ularni amalga oshirish uchun vazifalar ko'rib chiqildi.

Asosiy vazifalar — mazmuni boyitish, interaktiv formatlarni joriy qilish, intellektual tarmoqlar faoliyatini kuchaytirish, raqamli platforma va media resurslaridan foydalanish, ishonchli hamkorlik mexanizmlarini tashkil etish, natijalarni monitoring qilish — shu tarzda amalga oshirilishi kerak. Ushbu vazifalarni to'g'ri amalga oshirish orqali ommaviy-madaniy tadbirlar jamiyatda bilimli, fikrli, ijodiy faollikka ega ishtirokchilarni jalb qilish, madaniy va intellektual

kapitalni rivojlantirish, jamiyatning yangi rivojlanish bosqichiga mos madaniy–intellektual muhit yaratishda muhim vosita bo‘la oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Koshanova N. M. Zamonaviy jamiyatda intellektual madaniyatning rivojlanishi: muammo va imkoniyatlar Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti., p.f.f.d. (PhD) Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar ISSN 2181-1709 (P); 2181-1717 (E) (2023 йил № 12)
2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomi. 1-modda, 3-band. // Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar/. Mas'ul muharrir A.Saidov. – T., 2004.–3-b
3. Aripov A. A. Yoshlar ma'naviy xavfsizligini ta'minlashda bag'rikenglik fenomenini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari. Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.- S.:2023
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Оммавий тадбирларни ташкил этиш ва ўтказиш тартибини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2014 йил 29 июлдаги 205-сонли Қарори
5. Ahmedova O'.N. Jamiyat muhitida ma'naviy tarbiyani rivojlantirishning strategik texnologiyalari: falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Namangan, 2023. - B. 13.
6. Саматова С. Маънавий-маърифий тадбирлар самарадорлигини оширишнинг педагогик асослари: (ўқув-услубий қўлланма) - Бухоро: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti. 2020. - Б. 9.;
7. Азизиддин Насафий. Зубдат ул-хақойиқ. Ҳақиқатлар қаймоғи. (Н.Комилов тарж.) - Тошкент: Камалак, 1996. - Б. 19.